



## AHMAD YUGNAKIY VA “HIBAT UL-HAQOYIQ” ASARI

*Paxtaobod tumani 2-son politexnikumi*

*Ona tili va adabiyot o‘qituvchisi*

***Adxamjonova Zebiniso***

***Annotatsiya:*** Maqola Ahmad Yugnakiy va uning yagona asari “Hibat ul-haqoyiq”ni o‘rganadi. Shoirning hayoti, asarning mazmuni, til va adabiy xususiyatlari batafsil bayon etilgan. Asar turkiy til adabiyotining qadimgi yodgorligi sifatida ilmiy va madaniy ahamiyatga ega.

***Kalit so‘zlar:*** Til xususiyatlari, Leksik xususiyatlar, “Hibat ul-haqoyiq”, Alisher Navoiy asar haqida fikrlar

***Annotation:*** This article examines Ahmad Yugnakiy and his only known work, “Hibat ul-haqoyiq”. It details the poet’s life, the content of the work, and its linguistic and literary characteristics. The work holds significant scientific and cultural value as a historical monument of early Turkic literature.

***Key words:*** language features, lexical features, Alisher Navoi’s opinion about the work, “Hibat ul-haqoyiq”

### **Kirish**

Ilk islom davrining turkiy tildagi madaniyat obidalari bizgacha juda kam yetib kelgan. Hozircha turkiy adabiyotning bizga ma’lum namoyandasi mashhur “Hibat ul-haqoyiq” asarining muallifi Ahmad Yugnakiydir. U haqidagi ma’lumotlarni biz XV asrga oid Alisher Navoiy, Arslonxoja Tarxon va boshqalar yozib qoldirgan ma’lumot hamda shoirning o‘z yozganlaridan bilamiz.

Ahmadning bobosi Movarounnahrda islom dinini ilk qabul qilgan turkiy qavmlardan bo‘lib, bu voqea taxminan Qutayba zamonida (milodiy 706–715-yillar orasida) yuz bergan. Bo‘lg‘usi shoirning otasi Mahmud Yugnakiy VIII asrning birinchi yarmida dunyoga kelgan. Manbalarda Ahmadning tug‘ilgan joyi Yugnak deb ataladi. Bu nomdagi qishloqlar qadimgi Samarqand atrofi, Farg‘ona vodiysi va Sirdaryo bo‘ylarida mavjud bo‘lgan.



## Asosiy qism

### Hayoti

Mahmud Yugnakiyning yigit bo‘lib yetilgan davrlari Abu Muslim Ummaviylar sulolasiga qarshi qurolli qo‘zg‘olon boshlagan 747–750-yillarga to‘g‘ri keladi. Adib Ahmad ham shu davrlarda tavallud topgan bo‘lishi kerak. U onadan ko‘zi ojiz tug‘ilgan. Alisher Navoiy bu haqda shunday yozadi:

“Haq subhonahu va taolo agarchi zohir ko‘zin yopuq yaratgandur, ommo ko‘ngil ko‘zin bag‘oyat yoruq qilg‘ondur”.

Ahmad yoshligidan juda qobiliyatli va ziyrak bo‘lgan. Ko‘zi ojizligi sababli o‘zga turk yigitlari singari ot minib, qilich chopishga emas, Qur‘oni karimni yod olib, Rasululloh hadislarini o‘zlashtirishga jiddu-jahd ko‘rsatgan.

Uning o‘smirlik chog‘larida oilasi Bag‘dod yaqiniga ko‘chib borgan bo‘lsa kerak, uydan necha chaqirim piyoda yo‘l bosib Bag‘dodga, islom olamining eng buyuk alloma ustozlaridan, hanafiya mazhabining asoschisi Imomi A‘zam Abu Hanifa an-No‘mon ibn Sobit (699–767) huzuriga saboq olish uchun qatnay boshladi. Ushbu darslarda ilk islom madaniyatining yetakchi allomalari Imom Abu Yusuf al-Ansoriy (731–804) va Imom Muhammad ash-Shaybon (749–805) Ahmadning hamsaboqlari bo‘lgan. Imomi A‘zam Ahmadni barcha shogirdlaridan a‘lo ko‘rgan.

Ahmad Yugnakiydan yagona asar – “Hibat ul-haqoyiq” (“Haqiqatlar tuhfası” yoki “Sevimli haqiqatlar”) asari bizgacha yetib kelgan. Asar boshdan oyoq tavhid e‘tiqodiga tayanadi, muallif fikrlari Alloh taoloning muborak oyatlari, Rasululloh (SAV)ning hikmatli hadisları bilan dalıllanadi. Turkiy tilda bitilgan she‘riy matn orasida qator oyatlar, 20 dan ortiq hadislarining asl arabiy matni keltirilgan, ular turkiyda she‘r vositasida sharh etilgan.

Alisher Navoiy u haqida shunday yozadi:

“Xeyli elning muqtadosi ermish. Balki aksar turk ulusida hikmat va nuqtalari shoedur”.

Asardagi hikmatlarning mavzusi keng va rang-barang: olam va odam munosabatlari, hayotning mazmuni, kishi umrining mohiyati, bilimning afzalligi, odob-axloqning inson kamoloti uchun ahamiyati, insoniy fazilat va qusurlar xususida



chuqur bilim va hayotiy tajriba asosida, kundalik turmushdan olingan misollar orqali teran mulohazalar yuritiladi.

Masalan, muallif hukm dorlarni adolat va muruvvatga chaqirar ekan, arzimas bir ayb bilan ham bosh kesilaversa, dunyoda tirik kishi qolmaydi deydi:

Bu bir aybdan o ‘tru boshin kesguchi,

Ochunda tirilgu kishisiz qolur

“Hibat ul-haqoyiq” o‘n to‘rt bobdan iborat. Boshidan 4 muqaddima bob, 5–10 boblar turli mavzularga bag‘ishlangan bo‘lsa, 11 bob kitobning xotimasi hisoblanadi. Doston 512 misradan iborat.

Asar ilk bor uyg‘ur yozuvida bitilgan. Bugungacha beshta qo‘lyozma nusxasi – uchta to‘liq qo‘lyozma va ikkita parchalar nusxasi saqlanib qolgan. Eng qadimgisi 1444-yilda Samarqandda ko‘chirilgan. 1480-yilda Istanbulga ko‘chirilgan nusxasiga Turkiya sultoni Boyazid IIning muhri bosilgan.

Asarni turk olimi Najib Osimbek bir necha marta nashr etgan. Dostonning ilmiy-tanqidiy matnlari 1951-yilda turkiyalik olim Rashid Rahmat Arat, 1971-yilda o‘zbek olimi Qozoqboy Mahmudov tomonidan turli qo‘lyozmalarni solishtirish asosida tayyorlangan va chop etilgan.

Til xususiyatlari

Fonetik xususiyatlar: y undoshining o‘rnida z va d ishlatilgan (qozub–qo‘yib, kedin–keyin). D tovushi t tarzida ham qo‘llanilgan (tep–deb).

Morfologik xususiyatlar: vosita kelishigi affiksi -n, tushum kelishigi -ug/-üg, jo‘nalish kelishigi -gä/-ga/-kä/-qa, chiqish kelishigi -dan/-din/-tin kabi shakllar ishlatilgan. O‘rin-payt, qaratqich kelishigi hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi shakl bilan bir xil.

Leksik xususiyatlar: Asarda umumturkiy so‘zlar asosiy qatlam sifatida ishlatilgan (kuz, yo‘l, ko‘ngul, tun, yoz, tuproq). Arabiy va forsiy o‘zlashmalar keng tarqalgan (saodat, aql, nasihat, dushman, dil, ro‘z).

Sintaksis: Baytlar shart ergash gapli qo‘shma gaplar asosida qurilgan. –ing, –um, –ung, –ti, –tek, bila/birla shakllari qo‘llangan.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Navoiy, Alisher. Xamsa. Toshkent: Fan, 1985.
2. Mahmudov, Qozoqboy. Hibat ul-haqoyiq. Toshkent: Akademnashr, 1971.
3. Arat, Rashid Rahmat. Hibat ul-haqoyiq: Comparative Texts. Istanbul, 1951.
4. Osimbek, Najib. Turkiy Manuscripts and Hibat ul-haqoyiq. Tashkent, 1906, 1916, 1925.
5. Fitrat, Abdulhamid. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 1960.
6. Rustamov, E. Ahmad Yugnakiy va Hibat ul-haqoyiq. Toshkent, 1990.
7. Hayitmetov, A. Turkiy qadimiy adabiy yodgorliklar. Toshkent, 1980.